

**MILLIY SERTIFIKATNING O'QITUVCHILAR UCHUN  
MAJBURIY BO'LISHI XATOMI?**

*Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi*

*UrDU O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Hozirgi kunda ilm-fan rivojlanib, har bir soha kundan kunga jadallashib, chuqur o'rganilib bormoqda. Har qanday sohani egallagan mutaxassis kuchli bilim egasi, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kasbni egallovchi kelgusi kadrlarning salohiyatini oshirish uchun chora tadbirlar, yangi innovatsion g'oyalar ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri sifatida fanlardan milliy sertifikatlar, ya'ni umumta'lim fanlari bilish darajasini aniqlash sertifikatlariga ega bo'lmagan o'qituvchilarning ishga olinmasligini keltirish mumkin .

Milliy sertifikatlarni olish shu yildan boshlab o'qituvchilarga majburiy talab darajasiga chiqarildi va ko'plab mutaxassislar o'z bilimini sinash va qo'shimcha ustama pullariga ega bo'lish maqsadida sertifikat imtixonlarida qatnashmoqdalar. Chunki o'z mutaxassislik fanidan ma'lum darajadagi sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilarning oylik maoshlariga qo'shimcha ustama haqlari qo'shilishi belgilab qo'yilgan. Ammo hayratlanarlisi shuki, sertifikatning talab qilinishi, majburiy qilinishi haqidagi bu qarorga o'qituvchilarning ko'pchiligi qarshilik bildirishayotganlariga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, universitetlarni endi bitirayotgan bo'lajak o'qituvchilar orasida noroziliklar talaygina. Ularda "Nega 4 yil davomida Oliy ta'lim muassasalarida o'qitilgan tayyor kadrlar ishga joylashishlari uchun yana sertifikatga ega bo'lishlari shart?", "Davlat o'z berayotgan bilimiga ishonmaydimi?" kabi qator savollar tug' ilmoqda.

Bunday savollarga javob topiah qiyin masala emas, aslida. Chunki fanlar bo'yicha bilish darajasini aniqlash sertifikatlarining foydali taraflari juda ko'p. Milliy sertifikatlarning majburiy qilib qo'yilishi bo'lajak mutaxassislarning

bilim darajasini oshirish, maktablarda yoki har qanday kasbda faqat mukammal darajadagi o'z kasbining ustalari ishlashini ta'minlab beradi. Shuningdek, bu faqat maktablar yoki davlat uchun emas, balki har bir shaxsning o'zini shaxsiy rivojlantirishi, doimiy ilm o'rganib, o'z tajribalarini orttirib borishiga sabab bo'ladi. Zero, har bir shaxsning olgan bilimi doimo unga hamroh va yengilini oson qiladigan vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, sertifikatlar yoshlarga ham katta foyda keltiradi desak, mubolag'a bo'lmaydi, chunki bu ularning band bo'lishlarini ta'minlab, bo'sh vaqtlarini foydali o'tkazishlari uchun ham samarali bo'ladi hamda dunyoqarashlarini o'stirish, ko'plab ma'lumot va yanhiliklarni bilib olishga yo'l ochadi. Jumladan, Milliy sertifikatlardan tashqari ingliz tili fanidan o'tkaziladigan sertifikatlarning reading bo'limiga tayyorgarlik jarayonida ko'plab yangi narsalarni bilib olish va til o'rganish bilan birga dunyoviy bilimlarni egallash mumkin. Binobarin, barcha jinoyatlar yoxud ko'ngilsiz voqealar yoshlarning bo'sh qolishlari natijasida kelib chiqmoqda.

Sertifikatlarga ro'yxatdan o'tishda sarflanayotgan pullarning miqdori hammaga mos holda qo'yilgan bo'lib, unga ega bo'lgan o'qituvchi to'lagan pulini bir oyda ham qaytarib olish imkoniyatiga ega. Chunki baland darajali sertifikat bilan xatto oylik maoshining 50 foizi miqdoridagi pulga ham ega bo'la oladi. Faqat buning uchun doimiy harakat va bilim talab qilinadi. Imtixonlarga topshirish uchun yilning ma'lum oylarida tez-tez sinov testlari bo'lib o'tmoqda. O'qituvchilar yoki talabalar yilda bir necha marta tayyorgarliklar ko'rib imtixonlarda qatnashib darajasini oshirib borishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Milliy sertifikatning o'z bilimiga ishongan, salohiyatli va kasbiga loyiq mutaxassislar uchun hech qanday zararli taraflari yo'q, aksincha, bu orqali katta foyda olish hamda imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin.